

AUDITORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH VA BAHOLASH

IDENTIFYING AND EVALUATING FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF AUDITING ACTIVITIES

¹**Akromov Shohrux**
Shuhrat o'g'li

¹*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, "Bank ishi va buxgalteriya hisobi"*
kafedrası PhD, v.b. dotsenti. ORCID: 0009-0007-4309-2944

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur tadqiqotda auditorlik faoliyatining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimli ravishda tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida Buyuk Britaniya, AQSh, Italiya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Malayziya va Rossiya kabi davlatlarning auditorlik tizimlari tarixiy, huquqiy va institutsional jihatdan solishtirma tahlil etilgan. Auditorlik faoliyatining rivojlanishida huquqiy-me'yoriy baza, professional institutlar, texnologik innovatsiyalar, auditorlarning mustaqilligi va kasbiy etikasi muhim omillar sifatida asoslab berilgan. Shuningdek, auditorlik tizimlarining xalqaro standartlarga (ISA) integratsiya darajasi va ularning milliy iqtisodiyotga ta'siri baholangan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston auditorlik tizimini takomillashtirishda xorijiy tajribadan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Eng. - This study provides a comprehensive analysis of the formation, development stages, and key factors influencing the evolution of auditing activities. The research presents a comparative assessment of the auditing systems of the United Kingdom, the United States, Italy, Germany, France, Japan, Malaysia, and Russia from historical, legal, and institutional perspectives. The study highlights the critical role of regulatory frameworks, professional institutions, technological innovations, auditor independence, and professional ethics in ensuring audit quality. Special attention is given to the level of integration of national auditing systems with International Standards on Auditing (ISA) and their impact on financial transparency and economic stability. The findings of the study offer practical insights for improving the auditing system of the Republic of Uzbekistan through the effective application of international best practices.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *auditorlik faoliyati, audit tizimi, xalqaro audit standartlari (ISA), auditor mustaqilligi, professional institutlar, taqqoslama tahlil.*
❖ *auditing activity, auditing system, International Standards on Auditing (ISA), auditor independence, professional institutions, comparative analysis.*

Kirish.

Hozirgi globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy axborotning ishonchliligi, shaffofligi va haqqoniyligi iqtisodiy

barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda auditorlik faoliyati muhim institut sifatida namoyon bo'lib, u xo'jalik yurituvchi subyektlar

moliyaviy hisobotlarining qonunchilik va xalqaro standartlarga muvofiqligini mustaqil baholash orqali investorlar, kreditorlar, davlat organlari hamda jamiyat manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Auditorlik faoliyatining rivojlanishi iqtisodiyotning institutsional yetukligi, huquqiy muhitning barqarorligi, moliyaviy nazorat tizimining samaradorligi hamda kasbiy etika va mustaqillik tamoyillariga bevosita bog'liqdir. Xususan, rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mustahkam huquqiy baza, kuchli professional institutlar va zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi audit sifatini oshirish va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bugungi kunda xalqaro audit amaliyotida Xalqaro audit standartlari (International Standards on Auditing – ISA) keng qo'llanilmoqda va ular auditorlik faoliyatining yagona metodologik asosini shakllantirmoqda. Shu bilan birga, har bir davlat audit tizimini milliy iqtisodiy sharoit, huquqiy an'analar va boshqaruv modeli asosida rivojlantirib kelmoqda. Natijada auditorlik faoliyatining turli modellari shakllanib, ularning rivojlanish darajasi va samaradorligi o'zaro farqlanmoqda [1].

O'zbekiston Respublikasida ham auditorlik faoliyatini takomillashtirish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va audit xizmatlari sifatini oshirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy mamlakatlar auditorlik tizimlarining rivojlanish tajribasini o'rganish, ularning shakllanish bosqichlari va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot auditorlik faoliyatining rivojlanish tarixini, unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni hamda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasini taqqoslama tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, olingan natijalar milliy audit tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha asoslangan xulosalar

va amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Auditorlik faoliyatining nazariy asoslari va uning iqtisodiyotdagi o'rni masalalari xorijiy iqtisodchi va auditor-olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, Buyuk Britaniyalik iqtisodchi olim Robert A. Adams auditorlik faoliyatini moliyaviy axborot foydalanuvchilariga ushbu axborotning xatolik va tarfakashliklardan xoli ekanligi yuzasidan ishonch kafolatini beruvchi mustaqil jarayon sifatida talqin etadi [2]. Uning fikricha, auditor korxona va jamiyat o'rtasida ishonchni ta'minlovchi asosiy vositachi bo'lib, audit instituti moliyaviy shaffoflikning muhim tayanchi hisoblanadi.

Buyuk Britaniya auditorlik tizimining shakllanishiga oid ilmiy qarashlarda auditorlik faoliyatining paydo bo'lishi XIX asr sanoat inqilobi davrida aksiyadorlik jamiyatlari va yirik korporatsiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq holda izohlanadi [3]. Ushbu yondashuvga ko'ra, auditorlik faoliyati mulkdorlar va boshqaruvchilar o'rtasidagi axborot assimetriyasini kamaytirish zaruratidan kelib chiqqan holda shakllangan. ICAEW va ICAS kabi professional institutlarning tashkil etilishi audit kasbining ilmiy va amaliy rivojlanishida muhim bosqich sifatida baholanadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida auditorlik faoliyati rivojiga bag'ishlangan qarashlarda auditning investorlar ishonchini ta'minlashdagi roli ustuvor hisoblanadi [4]. AICPA, FASB va PCAOB kabi institutlar faoliyati audit standartlarini takomillashtirish va auditorlarning javobgarligini oshirishga xizmat qilgani ta'kidlanadi. Ayniqsa, Sarbanes-Oxley Act (SOX) qabul qilinishi auditorlik nazariyasida mustaqillik va javobgarlik tamoyillarini kuchaytirgan muhim burilish nuqtasi sifatida baholanadi.

Yevropa mamlakatlari, jumladan Italiya, Germaniya va Fransiya tajribasini yorituvchi

ilmiy qarashlarda auditorlik faoliyati davlat nazorati va professional institutlar uyg'unligiga asoslangan model sifatida tavsiflanadi [5]. Italiyaning Fuqarolik kodeksi (Codice Civile), Germaniyaning Wirtschaftsprüferordnung (WPO) va Fransiyadagi Commissaires aux comptes instituti auditorlik faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlovchi muhim manbalar sifatida ko'rsatiladi. Ushbu yondashuv audit sifatini ta'minlashda qat'iy normativ tartibga solish muhimligini asoslaydi.

Osiyo mamlakatlari bo'yicha berilgan ilmiy yondashuvlarda, xususan Yaponiya auditorlik modeli, G'arbiy audit standartlari va Sharqona kasbiy etika uyg'unligi asosida shakllangan ilg'or tizim sifatida baholanadi [6]. JICPA faoliyati, J-SOX va sifat nazorati tizimlari auditorlik faoliyatida intizom, mas'uliyat va texnologik innovatsiyalar muhimligini ko'rsatib beradi. Malayziya tajribasi esa rivojlanayotgan davlatlar uchun moslashuvchan va gibrid audit modeli sifatida talqin qilinadi.

Rossiya Federatsiyasida auditorlik faoliyati rivojiga oid qarashlarda davlat nazoratining ustuvorligi va auditorlik tashkilotlarining o'z-o'zini boshqaruvchi uyushmalar (SRO) orqali faoliyat yuritishi asosiy xususiyat sifatida qayd etiladi [7]. Ushbu yondashuv auditorlik faoliyatining milliy xavfsizlik va moliyaviy nazorat bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, berilgan olimlar va institutsional yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, auditorlik faoliyatining rivojlanishi huquqiy baza, professional institutlar, auditor mustaqilligi, kasbiy etika va texnologik taraqqiyot omillari bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur ilmiy qarashlar auditorlik tizimini takomillashtirishda xorijiy tajribani chuqur o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish zarurligini asoslab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda umumilmiy va maxsus tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez, taqqoslash hamda tizimli yondashuv usullari qo'llanildi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-tahliliy metod asosida turli mamlakatlar auditorlik tizimlarining shakllanishi va rivojlanishi o'rganildi. Taqqoslama tahlil yordamida auditorlik modellarining huquqiy, institutsional va texnologik xususiyatlari baholandi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish orqali audit sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mazkur tadqiqot doirasida auditorlik faoliyatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar bir qator davlatlar misolida tizimli ravishda tahlil qilindi.

1-jadval

Buyuk Britaniya auditorlik faoliyatiga rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili*

Yo'nalish	Kuchli jihatlar	Zaif jihatlar	Umumiy baho
Huquqiy asos	Qattiq tartibga solingan, mustahkam qonunlar	Ba'zan haddan ortiq byurokratik	Yuqori
Professional tizim	Mustaqil institutlar va malaka tizimi	Sertifikat xarajatlari yuqori	Yuqori
Texnologiya	Innovatsion yechimlar joriy qilingan	Kichik firmalar texnologik jihatdan orqada	Yuqori
Ijtimoiy omillar	Etika va jamoatchilik ishonchi yuqori	Yirik firmalarga haddan ortiq ishonch	Yuqori
Xalqaro integratsiya	ISA va IFRS to'liq qo'llanadi	Brexitdan keyin moslashuv davri	Yuqori

*Muallif tomonidan tayyorlangan.

1-jadval ma'lumotlari Buyuk Britaniyada auditorlik faoliyatining rivojlanishiga huquqiy asos, professional tizim, texnologiya, ijtimoiy omillar va xalqaro integratsiya yuqori darajada ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi. Jadval natijalariga ko'ra, huquqiy tartibga solish va

professional institutlarning mustahkamligi audit sifatini oshiruvchi asosiy omillar sifatida baholangan. Shu bilan birga, byurokratik yuklama va sertifikatlash xarajatlarining yuqoriligi tizimning nisbiy zaif jihatlar sifatida qayd etilgan.

2-jadval

Italiyada auditorlik faoliyati rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili*

Yo'nalish	Kuchli jihatlar	Zaif jihatlar	Umumiy baho
Huquqiy asos	Yevropa standartlariga to'liq mos	Haddan ortiq byurokratik	Yuqori
Professional tizim	CNDCEC va MEF orqali kuchli nazorat	Sertifikat olish murakkab	Yuqori
Texnologiya	Yirik kompaniyalarda raqamli audit mavjud	SME sektorida sust	O'rta-yuqori
Ijtimoiy omillar	Etika va kasbiy qadriyatlar rivojlangan	Ba'zi hududlarda ishonch past	O'rta-yuqori
Xalqaro integratsiya	ISA Italia va EU direktivalariga moslashgan	Brexitdan keyin moslashuv davri	Yuqori

*Muallif tomonidan tayyorlangan.

Italiya auditorlik tizimi tahlil qilinganda, Yevropa Ittifoqi standartlariga to'liq moslashuv va davlat nazoratining kuchliligi ijobiy natija bergani aniqlandi. Biroq, jadval ma'lumotlari kichik va o'rta korxonalar sektorida audit

texnologiyalarining sust joriy etilishi hamda byurokratik murakkabliklar mavjudligini ko'rsatadi. Bu holat Italiya auditorlik tizimining umumiy bahosini "o'rta-yuqori" darajada shakllantirgan.

3-jadval

AQSh auditorlik faoliyati rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili*

Yo'nalish	Kuchli jihatlar	Zaif jihatlar	Umumiy baho
Huquqiy asos	Juda qat'iy, javobgarlik aniq	Haddan ortiq regulatsiya xarajatlarni oshiradi	Juda yuqori
Professional tizim	CPA, AICPA, PCAOB orqali mukammal tartib	Sertifikatlash jarayoni murakkab va qimmat	Juda yuqori
Texnologiya	AI va Big Data asosida ilg'or tizim	Kichik firmalar uchun qimmat	Juda yuqori
Ijtimoiy omillar	Auditorlikka ishonch yuqori, etika qat'iy	Ba'zi siyosiy bosimlar mavjud	Yuqori
Xalqaro integratsiya	ISA bilan uyg'unlashgan tizim	IFRS-GAAP tafovutlari hali mavjud	Yuqori

*Muallif tomonidan tayyorlangan.

AQSh auditorlik tizimining tahlili keltirilgan bo'lib, unda huquqiy asos, professional tizim va texnologik rivojlanish deyarli barcha yo'nalishlarda "juda yuqori" baholangan. Jadval natijalari AQShda auditorlik faoliyati qat'iy normativ tartibga solinganini va

auditorlarning javobgarligi yuqori ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, regulatsiya xarajatlarining yuqoriligi va sertifikatlash jarayonining murakkabligi tizimning asosiy cheklavlari sifatida aniqlangan.

4-jadval

Davlatlarning umumiy tahlili*

Davlat	Model turi	Xususiyat	Mustaqillik darajasi	Texnologiya	Xalqaro integratsiya
Germaniya	Yevropa modeli	Huquqiy qat'iylik, professional IDW tizimi	Yuqori	Yuqori	To'liq
Fransiya	Davlat-nazoratli	CNCC va H3C asosida	O'rta-yuqori	O'rta	Yuqori
Malayziya	Gibrid (rivojlanayotgan)	MIA va MASB orqali	O'rta	O'rta	Yuqori
Yaponiya	Intizomli texnologik	Etika va AI integratsiyasi	Yuqori	Juda yuqori	Yuqori
Rossiya	Davlat markazli	SRO va nazorat tizimi	O'rta	O'rta	Cheklangan

*Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tayyorlangan.

Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Malayziya va Rossiya auditorlik tizimlarining umumiy taqqoslama tahlili keltirilgan. Jadval natijalariga ko'ra, Germaniya va Yaponiya auditorlik tizimlari mustaqillik darajasi va texnologik rivojlanish bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi. Fransiyada davlat nazorati kuchli bo'lsa-da, auditorlarning mustaqilligi nisbatan

cheklangan. Malayziya auditorlik tizimi rivojlanayotgan model sifatida baholanib, xalqaro integratsiya yuqori bo'lsa-da, texnologik daraja o'rtacha ekanligi aniqlangan. Rossiyada esa davlat markazlashgan model ustun bo'lib, xalqaro integratsiya va kasbiy mustaqillik darajasi cheklangan.

5-jadval

Auditorlik faoliyati rivojlanishining xalqaro taqqoslama tahlili*

Davlat	Dastlabki bosqich	Zamonaviy bosqich	Asosiy professional tashkilot
Buyuk Britaniya	XIX asr sanoat inqilobi davrida, 1844-yilgi "Joint Stock Companies Act" bilan	2006-yildan keyin FRC va ARGAN nazorati ostida	ICAEW, ICAS
AQSh	1887-yilda AAPA (hozirgi AICPA) tashkil etilgan	2002-yil SOX qonuni va PCAOB islohotlari	AICPA, PCAOB
Italiya	1942-yilgi "Codice Civile" asosida	2010-yil D.Lgs. 39/2010 bilan EU standartlariga moslash	CONSOB, CNDCEC
Germaniya	1931-yildan majburiy audit	2004-yil EU direktivalariga mos yangilanish	IDW
Fransiya	1945-yildan "Commissaire aux comptes" instituti	2016-yilda H3C nazorati joriy etilgan	CNCC, H3C
Yaponiya	1948-yildan rasmiylashtirilgan	2010-yil raqamli audit tizimi joriy etilgan	JICPA
Malayziya	1967-yil "Companies Act" bilan	2017-yil "Companies Act 2016" asosida ISA Malaysia	MIA, MASB
Rossiya	1993-yil "Auditorlik faoliyati to'g'risida qonun"	2010-yil SRO tizimi joriy etildi	SRO Rossii, FNS

*Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tayyorlangan.

Auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari xalqaro miqyosda taqqoslandi. Jadvaldan ko'rinishicha, auditorlik faoliyatining zamonaviy bosqichiga eng erta o'tgan davlat AQSh bo'lib, undan keyin Buyuk Britaniya yetakchi o'rinni egallagan. Boshqa davlatlarda auditorlik tizimlari milliy iqtisodiy sharoit va huquqiy modelga mos ravishda rivojlangan.

6-jadval


Auditorlik faoliyatini umumiy kompleks baholash*

Davlat	Huquqiy asos	Texnologiya	Etika va ishonch	Mustaqillik	Umumiy natija
Buyuk Britaniya	Juda yuqori	Yuqori	Yuqori	Yuqori	Yetakchi model
AQSh	Juda yuqori	Juda yuqori	Yuqori	Yuqori	Yetakchi model
Italiya	Yuqori	O'rta-yuqori	O'rta	Yuqori	Barqaror
Germaniya	Juda yuqori	Yuqori	Yuqori	Yuqori	Kuchli tizim
Fransiya	Yuqori	O'rta	Yuqori	O'rta	Davlat-nazoratli model
Yaponiya	Yuqori	Juda yuqori	Juda yuqori	Yuqori	Texnologik model
Malayziya	O'rta-yuqori	O'rta	O'rta	O'rta	Rivojlanayotgan model
Rossiya	O'rta	O'rta	Past	O'rta	Davlat markazli model

*Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tayyorlangan.

Auditorlik faoliyatini umumiy kompleks bahosi berilgan bo'lib, Buyuk Britaniya va AQSh "yetakchi model", Germaniya "kuchli tizim", Yaponiya esa "texnologik model" sifatida

baholangan. Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, audit tizimining muvaffaqiyati huquqiy asos, texnologiya va etika omillarining uyg'unligiga bevosita bog'liqdir.



1-rasm. Big Four kompaniyalarining daromadlari¹

Big Four kompaniyalarining 2024-2025-yillardagi global daromadlari taqqoslangan. Rasm tahlili auditorlik bozorida Big Four kompaniyalarining ustun mavqeini

ko'rsatadi. Deloitte yetakchi o'rinni egallagan bo'lsa, PwC va EY barqaror o'sish sur'atlarini namoyish etgan, bu esa yirik auditorlik

¹Rasmiy axborot manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

kompaniyalarining bozordagi hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqot natijalari auditorlik faoliyatining rivojlanishi huquqiy-me'yoriy baza, professional institutlar faoliyati, auditorlarning mustaqilligi, kasbiy etika va texnologik rivojlanish omillarining o'zaro uyg'unligiga bevosita bog'liq ekanini ko'rsatdi. Tahlil qilingan xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, ushbu omillar barqaror va tizimli tarzda shakllangan davlatlarda auditorlik faoliyati moliyaviy shaffoflikni ta'minlovchi samarali mexanizm sifatida rivojlangan.

Buyuk Britaniya va AQSh auditorlik tizimlari qat'iy huquqiy tartibga solish, mustaqil nazorat institutlari hamda raqamli audit texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida yetakchi modellar sifatida shakllangan. Germaniya va Yaponiya tajribasi esa audit faoliyatida intizom, kasbiy mas'uliyat va texnologik innovatsiyalar uyg'unligining yuqori natija berishini ko'rsatadi. Italiya va Fransiya davlat nazoratining kuchliligi auditning huquqiy kafolatlanganligini oshirgan

bo'lsa-da, byurokratik cheklovlar tizim samaradorligini nisbatan pasaytirgan. Malayziya va Rossiya auditorlik tizimlari esa rivojlanish bosqichida bo'lib, xalqaro standartlarga moslashish va texnologik tayyorgarlikni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjudligini namoyon etadi.

Tadqiqot natijalari asosida auditorlik faoliyatini yanada takomillashtirish huquqiy bazani mustahkamlash, auditorlarning mustaqilligi va kasbiy javobgarligini kuchaytirish, raqamli audit texnologiyalarini keng joriy etish hamda kasbiy malaka va etika tizimini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Shuningdek, yetakchi davlatlar auditorlik tizimlarining ijobiy jihatlarini milliy sharoitga moslashtirish audit tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, auditorlik faoliyatining samarali rivojlanishi huquqiy, institutsional va texnologik omillar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash orqali iqtisodiy ishonch va moliyaviy shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akromov Sh.Sh. *Audit tekshiruvini rejalashtirishda ilg'or xorij tajribasi qo'llash imkoniyatlari*. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, ilmiy-ommabop jurnal oktabr, 2024-yil. № 10-son.
2. Robert A. Adamsning auditorlik faoliyatiga bergan nazariy ta'rifi.
3. Buyuk Britaniya auditorlik tizimining tarixiy shakllanishi va professional institutlar roli.
4. AQSh auditorlik tizimi va AICPA, PCAOB, SOX islohotlari.
5. Italiya, Germaniya va Fransiya davlat auditorlik faoliyatining huquqiy-institutsional modeli.
6. Yaponiya va Malayziya auditorlik tizimlarida etika va texnologiya uyg'unligi.
7. Rossiya Federatsiyasida auditorlik faoliyatining davlat-nazoratli rivojlanish modeli.